



Billura TOLIPOVA,

Katta o'qituvchi, Markaziy Osiyo universiteti, Andijon, O'zbekiston

E-mail: mega.billura@mail.ru

FarDU dotsenti, PhD Sh.Yusupjonova taqrizi asosida

COGNITIVE-PRAGMATIC INTERPRETATION OF THE LANGUAGE SYSTEM AND LINGUISTIC ACTIVITY

Annotation

This article analyzes the theoretical and practical relationship between the language system and linguistic activity through a cognitive-pragmatic approach. The study explores the interconnection of language with human thinking, social communication, cultural experience, and context based on the scientific views of Abu Nasr Farabi, Ferdinand de Saussure, Noam Chomsky, Stephen Levinson, and Abduhamid Nurmonov. The article is organized according to the IMRAD model, where the introduction substantiates the relevance of the problem and the purpose of the research. The methodology section applies theoretical-comparative, cognitive, and pragmatic methods of analysis. The results section reveals the main differences between the language system and linguistic activity, their interrelation, and their manifestation in the communicative process. The discussion section scientifically examines the cognitive, pragmatic, and social significance of this relationship.

Key words: Language system, linguistic activity, thinking, pragmatics, context, competence, performance, cultural heritage, social communication.

КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЫ И ЯЗЫКОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируется теоретическая и практическая взаимосвязь между языковой системой и языковой деятельностью на основе когнитивно-прагматического подхода. Исследование раскрывает взаимосвязь языка с человеческим мышлением, социальной коммуникацией, культурным опытом и контекстом на основе научных взглядов Абу Насра Фараби, Фердинанда де Соссюра, Ноама Хомского, Стивена Левинсона и Абдухамида Нурмонова. Во введении сформулированы обосновываются актуальность проблемы и цель исследования. В разделе методологии используются теоретико-сравнительный, когнитивный и прагматический методы анализа. В разделе результатов раскрываются основные различия между языковой системой и языковой деятельностью, их взаимосвязь и особенности проявления в коммуникативном процессе. В разделе обсуждения анализируется когнитивное, прагматическое и социальное значение данного взаимодействия с научной точки зрения.

Ключевые слова: Языковая система, языковая деятельность, мышление, прагматика, контекст, компетенция, перформанс, культурное наследие, социальная коммуникация.

TIL TIZIMI VA LISONIY FAOLIYATNING KOGNITIV-PRAGMATIK TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqola til tizimi va lisoniy faoliyat o'rtasidagi nazariy-amaliy munosabatni kognitiv-pragmatik yondashuv asosida tahlil qiladi. Tadqiqotda tilning inson tafakkuri, ijtimoiy muloqot, madaniy tajriba va kontekst bilan bog'liqligi Abu Nasr Farobiy, Ferdinand de Sossyur, Noam Xomskiy, Stefen Levinson hamda Abduhamid Nurmonov qarashlari asosida ochib beriladi. Maqola IMRAD tuzilmasida yozilgan bo'lib, kirish qismida muammoning dolzarbligi, metod qismida nazariy-qiyosiy va pragmatik tahlil usullari, natijalar qismida til tizimi va lisoniy faoliyatning asosiy farqlari hamda o'zaro bog'liqligi, munozara qismida esa ushbu munosabatning kognitiv va ijtimoiy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Til tizimi, lisoniy faoliyat, tafakkur, pragmatika, kontekst, kompetensiya, performans, madaniy meros, ijtimoiy muloqot.

Kirish. Til insoniyat tafakkurining asosiy ifoda vositasi bo'lib, olamni anglash, bilimni tizimlashtirish, tajribani avlodlarga yetkazish va ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda beqiyos o'rin tutadi. Til tizimi va lisoniy faoliyat bir qarashda alohida hodisalar sifatida ko'rinib-da, ular bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlardir. Til tizimi lisoniy birliklar, qoidalar va munosabatlarning nisbatan barqaror majmui sifatida mavjud bo'lsa, lisoniy faoliyat ushbu tizimning real muloqot vaziyatida namoyon bo'lishidir. Zamonaviy tilshunoslikda til tizimi va lisoniy faoliyat masalalari kognitiv lingvistika, pragmatika va psixolingvistika doirasida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Til faqat grammatik qoidalar yig'indisi emas, balki inson tafakkuri, ijtimoiy tajriba va madaniy ongni ifodalovchi murakkab hodisa hisoblanadi.

Til tizimi va lisoniy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlik Ferdinand de Sossyurning "langue" va "parole", Noam Xomskiyning "competence" va "performance" nazariyalari, Stefen Levinsonning pragmatik qarashlari hamda Abu Nasr Farobiyning til va tafakkur haqidagi falsafiy yondashuvlari orqali turlicha talqin etilgan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi til tizimi va lisoniy faoliyatning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularning o'zaro bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot davomida quyidagi savollarga javob izlandi:
Til tizimi va lisoniy faoliyat o'rtasidagi asosiy farqlar nimada?

Pragmatik omillar lisoniy faoliyatga qanday ta'sir qiladi?

Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat qanday shakllanadi?

Badiiy matnda kontekstual ma'no qanday namoyon bo'ladi?

Ushbu maqolaning maqsadi til tizimi va lisoniy faoliyatni kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan qayta tahlil qilish, ularning nazariy farqlarini, amaliy bog'liqligini va ijtimoiy-kommunikativ ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til va tafakkur munosabati turli davr mutafakkirlari tomonidan har xil nazariy nuqtayi nazardan talqin qilingan.

Abu Nasr Farobiy tilni inson tafakkurining tashqi ifodasi sifatida talqin qilib, til va fikrni ajralmas hodisalar sifatida ko'radi. Unga ko'ra, inson ongidagi bilim va tajriba til vositasida shakllanadi va boshqalarga uzatiladi. [1]. Abduhamid Nurmonov tilni kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi, borliqdagi voqea-hodisalar haqidagi axborotni tashuvchi asosiy mexanizm sifatida izohlaydi [3].

Ferdinand de Sossyur tilni belgilar tizimi sifatida talqin qilib, "langue" va "parole" o'rtasidagi farqni ilmiy asoslaydi. Olim til tizimini abstrakt va ijtimoiy hodisa sifatida, nutqni esa individual va amaliy faoliyat sifatida izohlaydi [4].

Noam Xomskiy esa generativ grammatika nazariyasi orqali tilni inson ongidagi universal qoidalar bilan bog'liq kognitiv qobiliyat sifatida tushuntiradi. U competence va performance tushunchalari yordamida insonning til haqidagi

Tahlil bosqichi	Asosiy vazifa	Qo'llangan yondashuv
1-bosqich	Nazariy manbalarni saralash	Tarixiy-nazariy tahlil
2-bosqich	Asosiy tushunchalarni guruhlashtirish	Kognitiv va strukturaviy tahlil
3-bosqich	Misollar orqali izohlash	Pragmatik va kontekstual tahlil
4-bosqich	Umumiy xulosalarni shakllantirish	Qiyosiy-konseptual tahlil

Tadqiqotning nazariy bazasini Farobiy, Ferdinand de Sossyur, Noam Xomskiy, Stefen Levinson va Abduhamid Nurmonovning ilmiy qarashlari tashkil etgan bo'lsa, empirik material sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan olingan dialogik birliklar va narrativ misollar tanlab olindi. Ushbu misollar orqali: kontekstual ma'no, kommunikativ niyat, individual nutq, pragmatik inferensiya hodisalari tahlil qilindi. Tahlil jarayonida til birliklarining kommunikativ vaziyatga bog'liq ravishda qanday ma'no anglatishi o'rganildi. Badiiy matn namunalari til tizimi qoidalarining real lisoniy faoliyatda qanday ishlashini ko'rsatish uchun tanlandi. Tadqiqot empirik statistik tahlilga emas, balki ilmiy-nazariy talqin va konseptual qiyoslashga asoslanadi.

Tahlil va natijalar. Sossyur talqinida til tizimi belgilar tizimi sifatida jamiyat xotirasida mavjud bo'ladi, nutq esa ushbu tizimning individual qo'llanishidir [4]. Xomskiy bu farqni "competence" va "performance" tushunchalari orqali izohlaydi: competence inson ongidagi til qoidalarini bilish qobiliyatini, performance esa ushbu bilimning real nutq yoki

Til tizimi	Lisoniy faoliyat
Abstrakt va nisbatan barqaror qoidalar majmui	Real muloqotda amalga oshadigan amaliy jarayon
Grammatik, leksik, fonetik va semantik birliklarga asoslanadi	Kontekst, vaziyat, so'zlovchi maqsadi va tinglovchi talqiniga bog'liq
Nazariy jihatdan umumiy va tizimli	Individual, ijtimoiy va madaniy sharoitda o'zgaruvchan
Misol: ega + to'ldiruvchi + kesim modeli	Misol: "Men kitob o'qiyman" gapining muloqotdagi aniq vazifasi

Levinson, shuningdek, "implied meaning" (yashirin ma'no) va "contextual inference" (kontekst orqali ma'no chiqarish) kabi tushunchalari haqida munosabat bildirib, unga ko'ra kontekst yordamida berilayotgan gapning yashirin ma'nosini bilib olish mumkin.

Masalan, "– Siz o'shami? [5]" degan gap grammatik jihatdan aniq, lekin kontekstga qarab undagi ma'no boshqacha talqin qilinishi mumkin (masalan, kutgan insonni ko'rish, hayratlanish – salbiy yo ijobiy va hokazo).

Yuqoridagi misoldan shuni xulosa qilish mumkinki, har qanday axborot zamon va makonga, kim tomonidan, kimga nisbatan aytilishiga ko'ra bir qator ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Berilgan gapning asl ma'nosini bilish esa

ichki bilimlari hamda uning real nutqdagi qo'llanishini farqlaydi. Bu ayniqsa tildan foydalanish jarayonida ko'rinadi. Misol uchun, majhul nisbatda gaplar qanday tuzilishini bilgan, ushbu mavzu yuzasida qator mashqlar bajarishiga qaramay talaba mustaqil suhbat qurayotganda, o'z nutqida ushbu shakldan umuman foydalanmasligi mumkin. Shu sababli, til tizimi nazariy va mavhum bo'lsa-da, u lisoniy faoliyat orqali amalda ko'rinadi. Bu bilim inson ongida tabiiy ravishda mavjud bo'lib, uni amaliy faoliyatda qo'llash performance orqali amalga oshadi [6].

Stefen Levinsonning pragmatik yondashuvi esa til birliklarining haqiqiy ma'nosi kontekst, vaziyat va ijtimoiy omillar orqali aniqlanishini ko'rsatadi. Unga ko'ra, gapning asl ma'nosi nafaqat grammatik struktura, balki kommunikativ vaziyat, so'zlovchi maqsadi va tinglovchi tajribasi orqali ham belgilanadi. [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tahlili uch bosqichda olib borilgan bo'lib, birinchi bosqichda Farobiy, Sossyur, Xomskiy, Levinson va Nurmonov qarashlaridagi asosiy tushunchalar ajratib olindi. Ikkinchi bosqichda ushbu tushunchalar "til tizimi", "lisoniy faoliyat", "tafakkur", "kompetensiya", "performans" va "kontekst" kategoriyalari asosida guruhlashtirilgan bo'lsa, uchinchi bosqichda nazariy fikrlar badiiy matn va kundalik muloqotdan olingan misollar orqali izohlandi.

yozuvda amalga oshishini bildiradi [6]. Levinsonning pragmatik qarashlari esa lisoniy faoliyatni kontekstdan ajratib bo'lmasligini ko'rsatadi [7]. Masalan, "Read this book" jumlasini grammatik jihatdan bitta shaklga ega bo'lsa-da, vaziyatga qarab qator ma'nolarni ifodalashi mumkin. Levinson bu gapni bir vaqtning o'zida ham buyruq, ham iltimos, ham maslahat bo'la olishiga ishora qilindi. Aynan bir jumlaning turli xil ma'nolarga ega bo'la olishi uni qayerda, kimga va qanday kayfiyatda aytilishiga qarab o'zgarishi muqarrar.

Til tizimi va lisoniy faoliyat o'rtasidagi farq o'zbek tilidagi misollarda ham aniq namoyon bo'ladi. Masalan, "Men kitob o'qiyman" jumlasini til tizimi nuqtayi nazaridan ega, to'ldiruvchi va kesim munosabatiga asoslanadi. Ammo real muloqotda bu gap ma'lumot berish, suhbatni davom ettirish yoki ettirmaslik, o'z odatini bildirish yoki muayyan vaziyatga javob qaytarish vazifasini bajarishi mumkin. Demak, grammatik shakl ma'noning faqat bir qismidir; uning to'liq kommunikativ mazmuni kontekst orqali yuzaga chiqadi.

muloqot qilayotgan insonning tafakkuri imkoniyatlari va xotirasidagi mavjud ma'lumotlarga tayanadi.

Xomskiy va Levinsonlarning lingvistik yondashuvlarining quyidagi farqi va o'xshashliklari diqqatingizga havola etsak:

1. Xomskiy til tizimini mavhum qoidalardan iborat ekanligini tushuntiradi va uni lisoniy faoliyatdan alohida ko'radi.

2. Levinson esa til tizimining qoidalari faqat kontekstda ishlatilganida to'liq ma'noga ega bo'lishini ta'kidlaydi.

Ikkala olim ham til tizimi va lisoniy faoliyatning muhimligini tan oladi, lekin biri nazariy (Xomskiy), ikkinchisi amaliy (Levinson) jihatlarni ko'proq o'rganadi.

Til tizimi o'zida universal qoidalarni saqlaydi, bu qoidalar har bir tilga xos bo'lsa-da, ular orqali muloqot imkoniyati kengayadi. Masalan, kishi har qanday ko'rinishdagi muloqotga kirishar ekan, o'z gapi orqali ma'lumot uzatadi va o'z munosabatini bildiradi. Bu jarayonda til tizimidagi qoidalarga amal qilingan holda lisoniy faoliyat amalga oshiriladi.

Natijalar til tizimi va lisoniy faoliyatning uch asosiy bog'lanish nuqtasini ko'rsatadi. Birinchidan, lisoniy faoliyat til tizimisiz yuzaga chiqmaydi, chunki muloqot grammatik va semantik qoidalarga tayanadi. Ikkinchidan, til tizimi lisoniy faoliyatsiz passiv holatda qoladi, chunki qoidalar faqat nutqiy jarayonda hayotiy mazmun kasb etadi. Uchinchidan, har ikki hodisa tafakkur, madaniy tajriba va ijtimoiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'langan.

Til tizimi va lisoniy faoliyatning kognitiv-pragmatik talqini shuni ko'rsatadiki, til nafaqat belgilar va qoidalar majmui, balki inson ongida shakllangan bilim, tajriba va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi faol mexanizmdir. Farobiy qarashlarida til tafakkurning ifodasi sifatida talqin qilinsa, Sossyur yondashuvida u ijtimoiy belgilar tizimi sifatida tushuntiriladi [1,4]. Xomskiy bu tizimni inson

ongidagi universal qobiliyat bilan bog'laydi, Levinson esa uning real ma'nosi kontekstda shakllanishini asoslaydi [6,7].

Mazkur tahlilning amaliy ahamiyati shundaki, tilni o'qitish, tarjima, matn tahlili, madaniyatlararo muloqot va pragmatik kompetensiyani rivojlantirish jarayonlarida til tizimi va lisoniy faoliyat o'rtasidagi farqni aniq anglash zarur. Talaba grammatik qoidani bilishi mumkin, biroq undan real kommunikativ vaziyatda to'g'ri foydalana olmasa, bu bilim to'liq lisoniy kompetensiyaga aylanmaydi. Demak, til ta'limida qoidalarni o'rgatish bilan birga ularni kontekstda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish muhimdir.

Xulosa va takliflar. Xomskiyning competence-performance modeli til tizimi va lisoniy faoliyat o'rtasidagi farqni tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Levinsonning pragmatik yondashuvi til birliklarining kommunikativ muhitdagi funksional xususiyatlarini ochib beradi. Farobiy qarashlari zamonaviy kognitiv lingvistika tamoyillari bilan uyg'unlashadi. Til tizimi va lisoniy faoliyatni kompleks o'rganish zamonaviy lingvistikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Pragmatik omillar va kontekst gap ma'nosining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. "O'tkan kunlar" romanidagi dialogik birliklar pragmatik ma'no va yashirin inferensiyaning yorqin namunasi hisoblanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda til va tafakkurning neyrolingvistik hamda madaniyatlararo jihatlarni yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
2. Абдурузиқ Рафиев, Назира Ғуломова. Она тили ва адабиёт. Тошкент, 2009.
3. Абдуҳамид Нурмонов. Лингвистик белги назарияси. Тошкент: Фан, 2008.
4. Ferdinand de Saussure. Course in General Linguistics. New York: The Philosophical Library, 1959.
5. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Toshkent: Sharq, 2007.
6. Chomsky, Noam. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, MA: MIT Press, 1965.
7. Levinson, Stephen C. Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.